

Yoshlar – Uchinchi Renessans drayverlari

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasidagi yosh rahbar kadrlarning o‘rnini belgilash va ularni turli mas’uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu kabi yangi mexanizm natijasida davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalar zamonaviy hamda kreativ fikrlaydigan, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, g‘ayrat-shijoatli yosh kadrlarga ishonib topshirilmoqda.

Ayni muhim o‘zgarishlarni davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “sotsial lift” tushunchasi qog‘ozda emas, amaliy ko‘rsatib berayotganidan dalolatdir. Xo‘sh, bu yo‘nalishda davlatimiz rahbari ishonch bildirgan yoshlar qaysi sohalarda faoliyat olib boryapti? Bu borada ularning fikri qanday?

Alisher Sa’dullayev – Yoshlar ishlari agentligi direktori, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi:

Prezidentimiz tashabbusi va amaliy ko‘magi tufayli mamlakatimizda yoshlar siyosati mutlaqo yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. O‘g‘il-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishiga aylanib, bu yo‘lda ulkan ishlar bajarilmoqda.

Ana shu g‘amxo‘rlik va e’tibordan ruhlanib, yoshlarning ham, o‘z navbatida, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hisi kuchaymoqda. Zamonaviy, demokratik yangi O‘zbekiston davlatini mustahkamlashda munosib ishtirok etishga intilmoqda.

So‘nggi to‘rt yil davomida yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun, davlatimiz rahbarining 7 ta farmoni, 14 ta qarori, 2 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 23 ta qarori va 4 ta farmoyishi imzolangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Hozirgi kunda bu yo‘nalishdagi ishlar davom ettirilib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palataci qoshida “Yoshlar parlament”lari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Prezidentimizning o‘tgan yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.

2018 yildan boshlab oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimi o‘rniga yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor lavozimi joriy etildi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalariga yuklandi.

Yoshlar siyosati samaradorligini oshirish maqsadida 182 ta vazirlik, idora va tashkilotda yetakchilar kengashi tashkil etildi. Boshlang'ich tashkilot yetakchisi lavozimi uchun alohida shtat birligi ajratilib, maqomiga ko'ra rahbarning yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari yoki maslahatchisi lavozimiga tenglashtirildi.

Yosh kadrlarga qaratilgan bunday e'tibor, beqiyos g'amxo'rlik va yaratilayotgan shart-sharoitlar yigit-qizlar hayotida yangidan-yangi sahifalar ochilishiga zamin yaratmoqda.

Gulnoza Boboyeva,O'zA
01.07.2021-yil

“Qizlar jamiyat – ko‘zgusi”

Poytaxtimizda O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan “Qizlar jamiyat – ko‘zgusi” mavzuidagi tadbir o‘tkazildi.

“Qiz bola – bu baxtli bo‘lish uchun tug‘ilgan!” shiori ostida tashkil etilgan tadbirda Toshkent shahar hokimligi, prokuratura, san‘at va madaniyat xodimlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillari, fan doktorlari, jurnalistlar hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda ishtirokchilar bugungi kunda xotin-qizlarga yaratilgan keng imkoniyatlar xususida alohida to‘xtalib o‘tishdi. Xususan, yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilayotgani ta‘kidlandi.

Prezidentimizning beshta muhim tashabbusida xotin-qizlarning bandligini ta‘minlashga alohida etibor qaratilganligi, shuningdek, yaqindagina qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinganligi xotin-qizlarga qaratilgan e‘tiborning yaqqol tasdig‘i ekanligi borasida so‘z yuritildi. So‘ngra tashrif buyurgan mehmonlar va qizlar bilan ochiq muloqot o‘tkazildi.

Tadbir davomida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning mamlakatimizdagi professional va oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olishi bo‘yicha to‘lov-kontraktlarining bir qismi qoplab berilishi hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o‘zini-o‘zi band qilishga zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish maqsadida subsidiya ajratilganligi uchun bir qator qizlarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

Hozir Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan asosiy vazifalardan biri bu mamlakat istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda gender tengligini ta‘minlash, shuningdek, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda qizlar faolligini oshirish hisoblanadi, –dedi **Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari Dilnoza Kattaxanova**. Bu borada esa bir qancha ezgu ishlar amalga oshirilayotganligini mana shu targ‘ibot tadbirlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Bugun qizlarimiz dunyo minbarlarida o‘zlarining nazokati, nozikligi bilan iqtidoriyu iste‘dodlarini namoyon etayotganliklari ham so‘zimiz isbotidir.

Gulnoza Boboyeva, O‘ZA

12.10.2021-yil

2021 yil – yoshlar hayotida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?

Joriy yil, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” yoshlarimiz hayotida o‘zgacha esda qolarli bo‘ldi.

Ularning siyosiy-ijtimoiy faolligi yanada ortdi. Yoshlar bilan ishlash mutlaqo yangicha tizim asosida yo‘lga qo‘yildi. Bu borada esa O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi sezilarli tashabbuslarni ko‘rsatdi.

O‘tayotgan bir yil davomida qilingan ishlar, yoshlar hayotida aks etgan o‘zgarishlar va kelajak rejaları haqida Yoshlar agentligi direktori Alisher Sa’dullayev O‘zA muxbiriga quyidagilarni gapirib berdi.

Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi doirasida qilingan samarali ishlar mamlakatimizda yosh avlodga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning amaldagi yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi. Shuningdek, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar dasturlari”ning amalga oshirilishi yoshlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishiga zamin yaratdi.

Xususan, joriy yilda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 44 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida yoshlar uchun joriy etilgan 44 ta imtiyoz va qulayliklar “Yoshlar portali”ga kiritilib, bir qator amaliy natijalarga erishildi. Jumladan, yoshlarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha yil boshida Davlat xavfsizlik xizmati, mutasaddi vazirliklar va hokimliklar bilan hamkorlikda “mahallabay” shakllantirilgan “Yoshlar balansi” asosida 597 ming 573 nafar yosh “Yoshlar daftari”ga kiritildi.

Kasb-hunar o‘rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari, subsidiyalar ajratish va ijtimoiy-moddiy qo‘llab-quvvatlash natijasida 6 ming nafarga yaqin yoshlarimiz bandligi ta‘minlandi va imkoniyati cheklangan, tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuman (shahar)larda moliyaviy manbalari aniq belgilangan “Yoshlar daftari” jamg‘armalari tashkil etilib, jamg‘armalar hisobidan ishsiz yoshlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari, urug‘lik va ko‘chat xarid qilish uchun subsidiyalar ajratish, noturarjoylar ijarasi va boshqa yo‘nalishlarda 126 ming nafar yoshga 256 milliard so‘m miqdorda amaliy yordam ko‘rsatildi. Davlatimiz rahbarining yoshlarga yer ajratish tashabbusi bilan ilk marotaba 424 ming nafar yoshlarga 127 ming gektar ekin maydonlari ajratilib, ish o‘rinlari yaratildi.

Yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimli yo‘lga qo‘yildi. Yil davomida 52 ming nafar yosh kasb-hunar va 110 ming nafari tadbirkorlikka o‘qitildi. Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilishi ham yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda munosib hissa qo‘shdi. Tuman (shahar)larda tashkil etilgan 199 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari”da 73 ta loyiha orqali mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratildi.

30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimiz bo‘ylab 6 milliondan ortiq g‘ayrati baland, intiluvchan yoshlar ishtirokida “Yangi O‘zbekiston yoshlari,

birlashaylik!” festivallar o‘tkazildi. Festivallar yoshlar uchun yetuklik va haqiqiy vatanparvarlik ko‘rigi bo‘ldi. Besh muhim tashabbus doirasida sport inshootlari, madaniyat markazlari, umumta‘lim maktablarida yoshlarni madaniyat va san‘at hamda sportga jalb etishga qaratilgan to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ko‘ngilli yoshlar jalb qilindi. IT va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida 198 ta Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 1,2 million nafardan ortiq yoshlar kompyuter dasturlash asoslariga bepul o‘qitilmoqda. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida “Yosh kitobxon” tanlovida 300 ming nafar yoshlar, “Yosh kitobxon oila” tanlovida 10 mingta yosh oilalar ishtirok etdi.

Shuningdek, yil davomida 1,2 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi. Yoshlarning ta‘lim olishi va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talaba yoshlar uchun ta‘lim krediti ajratishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yilib, bugungi kunga qadar 11 mingga yaqin yoshlarga imtiyozli ta‘lim kreditlari berildi.

Yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyati, xorijiy tillarni o‘rganishini rag‘batlantirish maqsadida “Ibrat tillar oromgohi”, “Bo‘lajak olim”, “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” va “Biznesga birinchi qadam” loyihalari yo‘lga qo‘yilib, tanlovlarda 52 ming nafar iqtidorli yoshlar qamrab olindi. Shuningdek, “Zakovat” intellektual o‘yinini ommaviy ma‘rifiy harakatga aylantirilishi orqali 30 ming nafardan ortiq yoshlar kashf etildi hamda mazkur harakatni rag‘batlantirish maqsadida Davlat byudjetidan har yili 50 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi. Yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan iste‘dodli va fidoyi yoshlarning 224 nafari davlat mukofotlari va 2 ming nafardan ortig‘i “O‘zbekiston mustaqilligiga 30 yil” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Yoshlar siyosatiga doir xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha ham yuqori natijalarga erishildi. Jumladan, Osiyoda o‘zaro ishonch choralari bo‘yicha Kengashning Yoshlar ishlari bo‘yicha maslahat Kengashiga O‘zbekiston teng huquqli a‘zo bo‘ldi. Germaniyada o‘tkazilgan “One Young World Summit-2021”da O‘zbekiston yoshlari delegatsiyasi ilk marotaba ishtirok etib, Sammit a‘zoligiga qabul qilindi. Turkiy tilli davlatlarning yoshlar va sport ishlari vazirlari ishtirokida ilk marotaba Toshkent shahrida “IDEA – Yosh tadbirkorlar forumi” o‘tkazildi.

Forum yakunida O‘zbekistonni 2022 yilda turkiy dunyo yoshlari poytaxti etib belgilash tashabbusi ilgari surildi. Kelgusi rejalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu yilgi natijalarning uzviy davomi bo‘ladi. Prezidentimiz tomonidan yaratib berilgan “Yoshlar daftari” tizimi kelgusi yilda ham samarali amalga oshiriladi. Joriy yilda maktabni tamomlab, mehnat bozoriga kirib kelgan 336 ming nafar yoshlarning muammolarini hal etish hamda bandligini ta‘minlash choralari ko‘riladi.

Yil sarhisobiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston yoshlar forumi – 2021” haftaligi o‘tkaziladi. Forum tadbirlari “mahalla-sektor-hudud-respublika” darajasida barcha qatlamdagi yoshlar ishtirokida tashkil etiladi. Haftalikda 100 ga yaqin yirik loyihalar

sarhisob qilinib, turli sohalardagi zamonamiz qahramonlarini kashf etish uchun maydon yaratiladi.

Forum loyihalari davomida yoshlarning taklif, muammo va tashabbuslaridan kelib chiqib, 2022 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga doir Hukumat qarori va chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

**O‘zA muxbiri
Gulnoza Boboyeva
yozib oldi.
08.12.2021-yil**

“Talabaga madad” yoshlarga nima berdi?

Keyingi vaqtlarda yoshlar manfaati va kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir imkoniyat “Talabaga madad” ijtimoiy loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur loyiha O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e‘lon qilinganiga hali ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, unga ariza topshirganlar va madad olib ulgurgan talabalar ham kam emas.

Xo‘sh, “Talabaga madad” loyihasini tatbiq etishdan ko‘zlangan maqsad nima? Bu borada kimga murojaat qilish kerak? Ushbu mavzu xususida mutasaddilar va ushbu loyiha imkoniyatlaridan foydalangan yoshlar bilan suhbatlashdik.

Alisher Sa’dullayev, Yoshlar ishlari agentligi direktori:

Biror-bir loyihaning yuzaga kelishi hamda joriy etilishiga, albatta, kimdir yoxud nimadir sabab bo‘ladi. Sir emas, so‘nggi paytlarda agentligimizga bilimli, iqtidorli talabalardan shartnoma-kontrakt pullarini to‘lashda qiyinchiliklar bo‘layotgani haqida murojaatlar kelib tushmoqda.

Ochig‘i, hammaga birdek yordam berishga harakat qilyapmiz, ammo, birinchi navbatda, eng og‘ir moliyaviy vaziyatdagi talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratyapmiz.

Jumladan, iqtisodiy taraflama muammolarga duch kelayotgan, boquvchisini yo‘qotgan, ota-onasida (yoki ularning birida) nogironligi bo‘lgan, Mehribonlik uylari bitiruvchisi, yosh oila, “ijtimoiy himoya” yagona reyestriga kiritilgan oila farzandlari kabi toifalarga mansub talaba-yoshlarning to‘lov-kontrakt pullari to‘lab berilmoqda. Shu sababli Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda “Talabaga madad” loyihasi e‘lon qilindi.

Bunda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan, oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat bosqichi kunduzgi, sirtqi, kechki va maxsus-sirtqi ta‘lim shaklida hamda magistratura bosqichida tahsil oladigan talaba-yoshlarning umumiy to‘lov-kontrakt summasining 50 foizgacha bo‘lgan miqdori to‘lab beriladi. Loyiha o‘z faoliyatini boshlagandan buyon ko‘plab yoshlar, oilalar minnatdorlik bildirilgan dil izohlarini ko‘rib, yoshlarga foydamiz tegayotganidan xursand bo‘laman. Iqtidorli, bilimli, ammo iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan yoshlarni davlatimiz hamisha qo‘llab-quvvatlashga tayyor.

Madad olish istagida murojaat qiluvchilar soni juda ko‘p. Avvalo, ular joyiga chiqib o‘rganiladi, shundan so‘ng yuqorida aytganimdek, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda yordam berishga kirishamiz. Maqsadimiz haqiqatan moliyaviy ko‘makka muhtoj, bilimli yoshlarga ko‘mak berishdan iborat. Talabalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mazkur tizim o‘z faoliyatini boshlagandan buyon juda ko‘p yoshlar “Talabaga madad” loyihasidan madad oldi desak, xato bo‘lmaydi.

Shuningdek, yaqinda loyiha doirasida talaba-yoshlarning kontraktini to'lab, ularni qo'llab-quvvatlagan eng faol mahalliy hokimliklar reytingi e'lon qilindi. Unga ko'ra, Jizzax viloyatidagi Sharof Rashidov tumani talaba soniga nisbatan eng ko'p moliyaviy qiynalgan ilmu toliblarga yordam qo'lini cho'zgan hokimlik, deb topildi.

Gulnoza Boboyeva, O'ZA
13.12.2021-yil